



**Shirinov Feruzjon**

*Shuxratovich □ Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Akramov Azamatjon**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**A'zamova Gulshanoy**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Abdullaeva Qizlarxon**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ommaviy onlayn ochiq kurslar va ulardan ta'lim tizimida foydalanish istiqbollari haqida bayon qilingan.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны публичные открытые онлайн-курсы и перспективы их использования в системе образования.*

**Annotation:** *This article describes public online open courses and the prospects for their use in the educational system.*

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, elektron o'quv kurslar, elektron darslik, Khan Akademyasi, on-layn kurs, Coursera, interaktiv qo'llanma.*

**Ключевые слова:** *информационные технологии, дистанционное образование, курсы электронного обучения, электронный учебник, Академия Khan, онлайн-курс, Coursera, интерактивное руководство.*

**Keywords:** *information technology, distance education, e-learning courses, e-textbook, Khan Academy, online course, Coursera, interactive guide.*

Xorijiy tillarni samarali o'qitishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari juda katta va shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlashda uning o'rni alohida. Xorijiy tillarni o'qitishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari, texnik va dasturiy vositalarni bilish bilan birga xorijiy tillarni o'qitishda multimedia resurslarini yaratish va ishlov berish texnologiyalari, shaxsiy elektron ta'lim resurslarini shakllantirish, xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha elektron o'quv kurslarini loyihalashtirish, o'quvchilar bilimni baholash tizimlari, xorijiy tillarni o'qitishda internet texnologiyalari, masofaviy o'qitish texnologiyalari va uni tashkil qilish usullaridan foydalanish, video konferensiya, ommaviy on-line ochiq kurslar(Coursera, edX, Khan Academy, MIT Open Course Ware)ni tashkil etish kabi malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarining ta'limga chuqur ta'siri natijasida pedagogika (ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fan)ning tarkibiy qismi sifatida elektron pedagogika kirib kelmoqda. Unda pedagogik jarayonda axborot-kommunikasiya va interaktiv texnologiyalaridan,

ta'limda Internet resurslaridan foydalanish, Internet tarmog'ining asosiy xizmatlari, jumladan Ziyonet.uz va boshqa ta'lim portallari resurslari bilan ishlash, Internet tarmog'ida pedagoglarning, talabalarning elektron muloqot muhitida jamoa bo'lib ishlash, blog, forum va tematik chatlarni tashkil etish, pedagoglarning tarmoqdagi hamkorligi bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini tashkil etish, axborot texnologiyalari vositasida pedagogning elektron portfoliosini shakllantirish, elektron axborot-ta'lim muhitida pedagogik jarayonni loyihalashtirish, ta'limni boshqarishtizimi LMS MOODLE tizimida ishlash nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyatda amaliy dasturiy vositalardan foydalanish, ular yordamida elektron darsliklar, trenajyorlar, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini yaratish usullarini bilish, Microsoft Word, Excel, Power Point va boshqadasturlarida elektron o'quv-metodik materiallarini yaratish usullariga ega bo'lish bilan birga Web 2.0/3.0 texnologiyalari yordamida elektron didaktik materiallarni yaratish vata'lim jarayonida qo'llash chet tili o'qituvchisi mahoratini belgilashning muhim omillaridan deb hisoblanadi.

Internet orqali o'quv materiallarini bepul va erkin tarqatishga mo'ljallangan "Ochiq darsxona" (Open courseware) deya nomlanuvchi elektron tizim bundan o'n yilcha muqaddam MTI tomonidan tashkil etilgan edi. Shundan so'ng yuzlab boshqa kollej va universitetlar ham o'quv materiallarini internetga barcha uchun bepul va ochiq qo'yish amaliyotini yo'lga qo'ydi. Bugunga kelib MTI va Stenford universiteti ushbu amaliyotni yangi bosqichga ko'tarishga qaror qildi.

Ular endi nafaqat kursda o'tiladigan materiallarni, balki darsning o'zini ham bepul taqdim etishmoqda. Stenfordda komp'yuter bo'yicha ikki mutaxassis dastlab "Sun'iy intellekt faniga kirish" (Introduction to Artificial Intelligence) nomli bepul "onlayn" kurs tashkil etdi.

Dunyoning 190 dan ortiq mamlakatidan jami 160 mingdan ziyod talaba kursga yozildi. Ko'ngillilar yordamida kurs materiallari qisqa muddat ichida dunyoning 44 tiliga tarjima ham qilindi. Ishtirokchilarning 23 ming nafari kurs materiallarini to'liq tamomlab, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdi hamda ushbu kursni bitirganlik to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'ldi.

2012-yil Stenford universiteti yana beshta bepul "onlayn" kursni tashkil etdi. Ularda o'qiyotgan talabalar soni yarim millionga yaqinlashgan. Bu borada Massachusetts Texnologiya instituti ham faollik ko'rsatmoqda. O'quv yurti tashabbusi bilan internet orqali bepul darslar beradigan "MITx" nomli yangi notijorat tashkiloti tuzildi. "MITx" qoshida ochilgan birinchi kurs – "Sxemalar va Elektronika" darsida qatnashish uchun yuz mingdan ziyod talaba ro'yxatdan o'tdi. "MITx" internet sahifasida yozilishicha, ro'yxatga yozilganlarning kamida 20 ming nafari dars mashg'ulotlarida to'liq va faol ishtirok etmoqda.

Coursera. Rasmiy sayti: [www.coursera.org](http://www.coursera.org)

Prinston universiteti, Berkli dagi Kaliforniya universiteti, Michigan An- Arbor hamda Pensilvaniya universitetlari ham hamkorlikda bepul "onlayn" kurslarini tashkil etmoqda. Ushbu kurslar "Coursera" deb nomlangan internet saytida jamlangan.

"Coursera" dan kurslarni nomlari va yo'nalishi bo'yicha yoki ularni taqdim etayotgan universitetlar bo'yicha qidirib topishingiz mumkin. Bepul darslarni taqdim etuvchi yana bir

sayt "Udacity" bo'lib, u ham "Coursera" bilan birgalikda Stenford universiteti mutaxassislari tomonidan bunyod etilgan.

Dunyoning nufuzli universitetlari taqdim etayotgan ushbu bepul "onlayn" kurslari:

- Coursera.org <https://www.coursera.org/>
- EdX – <https://www.edx.org/>
- UdeMy – <https://www.udemy.com/>
- LinguaLeo – <http://lingualeo.ru/> busuu – <http://www.busuu.com/enc/>
- TED – <http://www.ted.com>

Khan akademiyasi. Rasmiy sayti: <https://www.khanacademy.org>

Bir kuni MIT va Garvardni bitirgan qobiliyatli talaba Salmanxan boshqa shaharda yashaydigan kichkina amakivachchasini matematika fanidan qiynalishini bilib qoladi. U «YouTube» saytigavideodarslarni joylashtirib, ungayordambermoqchi bo'ladi va mashhur bo'lib ketadi. Endi Khan akademiyasi saytida har xil mavzudagi 42000 dan ortiq bepul mikroma'ruzalar bor. Ulardan ko'pchilig rus tilida ham mavjud.

Garvard Universiteti hamda Massachusetts Texnologiya Instituti birgalikda "barchayoshdagilar va turli millat vakillari uchun tekin, internet orqali interfaolta'lim olishlari uchun" notijoriy tashkilot tashkil qilishdi. EdX –bir so'z bilan aytganda, ta'lim platformasi, endi siz ingliz tilida Garvard Universiteti, MIT va yana Berkeley Kaliforniya Universitetlarida (hamda 2013-yildan Texas Universiteti ham qo'shilmoqda) o'rgatiladigan kurslardan bilim olishingiz mumkin.

Hozircha maskur EdX platformasida kimyo, tibbiyot, informatika, fizikaga oid kurslar qo'yilgan.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqatexnologiyalari yordamida doimiy muloqotdabo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqatamoyiliga egabo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «virtual o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotdabo'ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o'zgartirish niyati bo'lganyoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

1. Gulyamov S.S. va boshqalar. Main basic principles of use of digital technologies in agriculture in the Republic of Uzbekistan. Journal of American Sciencies, 2019, December, №12, pages 12-19.
2. S.Tursunov, I.Nazarov. Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik. Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2020. 1-2 tom, -262 b.
3. Shuhratovich, Shirinov Feruzbek. "TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH." PEDAGOG 6.6 (2023): 298-302.
4. Shuhratovich, Shirinov Feruzbek. "TA'LIM JARAYONIDA AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH." PEDAGOG 6.6 (2023): 303-307.
5. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "WEBSITE CREATION TECHNOLOGIES". INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. 2.19 (2023): 57-63.
6. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "COMPOSING AND SHAPING OF WEB TEXT". INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. 2.19 (2023): 51-56.S.
7. Islam, K. Lee, A. Fekete, A. Liu, How a consumer can measure elasticity for cloud platforms, in: Proceedings of the 3rd Joint WOSP/SIPEW International Conference on Performance Engineering, ICPE '12, Boston, Massachusetts, USA, 2012, pp. 85-96.
8. Meliqoziyevich, Siddiqov Ilhomjon, and Shirinov Feruzjon Shuhratovich. "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES." Open Access Repository 9.6 (2023): 262-264.
9. Meliqoziyevich, Siddiqov Ilhomjon, and Shirinov Feruzjon Shuhratovich. "PEDAGOGICAL IN THE DEVELOPMENT OF THEIR KNOWLEDGE TECHNOLOGY AND THE PLACE OF METHODS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.6 (2023): 559-562.
10. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "Technology for Working with Graphic Programs." Open Access Repository 9.12 (2022): 99-102.